

## “BERUNIY” YOZIB TUGALLANGANMI?

**Boyxurozov Diyorbek Sherzod o‘g‘li**

(Toshkent davlat transport universiteti talabasi)

**Annotatsiya:** Maqsud Shayxzodaning Hindiston safarida Bobur va uning avlodi qurgan davlatni ko‘rib lol qolsada, Beruniyning “Hindiston” asarida tasvirlagan manzaralar, urf-odatlar o‘zgarimasdan saqlanganligini uni ko‘proq taajjubga soladi va Beruniy haqida drama yozishni maqsad qiladi.

**Abstract:** While Maqsud Shaikhzadeh was amazed to see the state built by Babur and his descendants during his trip to India, he was even more surprised to see that the landscapes and customs described in Biruni's work "India" had been preserved unchanged, and he set out to write a drama about Biruni.

**Аннотация:** Хотя Мақсуд Шейхзада был удивлен, увидев государство, построенное Бабуром и его потомками во время его поездки в Индию, он был еще больше удивлен тем, что сцены и обычаи, описанные в произведении Беруни «Индия», остались неизменными, и он задался целью написать драму о Беруни.

**Kalit so‘zlar:** Maqsud Shayxzoda, Hindiston, Abu Rayhon Beruniy, Hindiston, Bobur.

**Keywords:** Maksud Shaykhzoda, Hindiston, Abu Raikhon Beruni, Hindiston, Bobur.

**Ключевые слова:** Мақсуд Шейхзада, Индия, Абу Райхан Беруни, Индия, Бабур.

1960 yili Shayxzoda rafiqasi bilan Karlovi Variga borib, picha davolanganidan keyin, 1961 yilning mart oyida Hindistonga safar qilgan edi. Har ikki xorijiy mamlakatga qilgan safari, garchand “Osiyo devoni” she‘rlar kitobi yakunlanmay qolgan bo‘lsa-da, shoirning shu yillarga oid she‘rlarida o‘z ifodasini topgan. Hindiston – Bobur va boburiylar tomonidan uch yuz yil davomida idora qilingan mamlakat. Shuning uchun ham Sovet davlatining “temir darvoza”lari ochilgan bir davrda bu mamlakat o‘zbek shoirining e’tiborini tortgan va unda Hindistonga sayyoh sifatida borish istagi uyg‘ongan edi. Ammo oddiy sayyoh emas, balki shoir sayyoh Hindistonga borib, Bobur singari vatandoshlarimiz qadamjolarini ziyorat qilgan ekan, demak, unda biror ijodiy niyatning tug‘ilgan bo‘lishi tabiiy edi. Shubhasiz, “Hindiston” deganda shoirning ko‘z oldiga dastavval Bobur kelgan bo‘lishi shubhasiz. Ammo o‘sha yillarda Bobur nomini tilga olish va u haqda yirik asar yozib nashr etish ilojisiz edi. Shuning uchun u Bombay ko‘chalari bo‘ylab kezinganida boshqa bir jahongashta o‘zbek shoirini eslaydi:

Nimalarni o‘yladim, bilsangiz u dam, Esladimki, yetmish yil bundan muqaddam – Bu yerda jag‘ongashta bitta sargardon Xo‘qandlik bir musofir yurgan ekan-ku! Guvohday u yo‘lchini ko‘rgan ekan-ku!..... Uni yurtdan quvgandi “falakning charxi”, U faqirdi. She‘rning ma‘lumdir narxi. Shoir edi, shu uchun balki noiloj – Chaynar edi vijdonni dunyoning dardi. “Mayda pul”ga, afsuski, doimo muhtoj, Ko‘z yoshin siyoh qilib g‘azal bitardi. Bombayda uni eslab men bo‘ldim diqqat, O‘zim mehmon bo‘lsam-da esimni faqat – Mehmon bo‘lib band etdi Zokirjon Furqat. Shayxzoda 50-yillarning ikkinchi yarmida Furqat hayoti va ijodini qunt bilan o‘rganishga kirishgan edi. Hindistonga qilgan safari chog‘ida esa jahongashta shoirning fojiali taqdiri uning ijodiy xayollarini zabt eta boshladi. Ammo 1960 yilda Turob To‘la va Mixail Melkumov ssenariysi asosida suratga olingan “Furqat” fil‘mining ekranga chiqarilgani, Izzat Sulton qalamiga mansub “Shoir qalbi” opera librettosi va “Rossiya nuri” kinossenariysining yozilganligi uning ijodiy rejalariga ma‘lum darajada rahna soldi. Biroq u 1963 yili “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi ustida ishlashda davom etar ekan, ilmiy doiralarda, yana o‘n yildan keyin Abu Rayhon Beruniy tug‘ilgan kunga 1000 yil to‘lishi va shu munosabat bilan buyuk o‘zbek olimi yubileyini nishonlash masalasi ko‘tariladi. Bundan voqif bo‘lgan Shayxzoda “Mirzo Ulug‘bek”ni tugatar-tugatmas, Beruniy va u yashagan tarixiy davrni o‘rganishga kirishadi. O‘sha yillarda “O‘zbekiston madaniyati” (hozirgi “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati”) gazetasining mas‘ul kotibi bo‘lib ishlagan Miad Hakimov 1964 yilda “Go‘zallik navkari” degan reportaj-maqolasini yozish uchun Shayxzoda bilan uchrashib, unga: “Shayx aka, teatr shinavdalariga yana nimalar tortiq qilmoqchisiz?” - degan savol bilan murojaat etgan. Mana, Shayx akaning bu savolga bergan javobi: “Dastlab shuni aytishim kerakki, biz tarixni tarix uchun emas, balki zamonamiz uchun o‘rganamiz. O‘tmishda yuz bergan voqealardan xulosa chiqarish, ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlarini o‘rganish, adolat va adolatsizlik, yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurashni ochib berish bizning vazifamizdir. Shu vajdan ham o‘tmishda yashagan va ma‘lum darajada davrning ziddiyatlarini o‘zida aks ettirgan monumental insonlar, ulkan xarakterlar hamda dahshatli fojialar hamisha meni qiziqtirib kelgan. Shu vaqtgacha yozgan ikki asarimning mavzusi ham shu bilan izohlanadi. Hozir men ulug‘ olim va mutafakkir Beruniy haqida bir nima yozish niyatida yuribman, shunga materiallar to‘playapman”. Shayxzodaning Beruniy to‘g‘risida asar yozmoqchi bo‘lganligi haqidagi ilk bosma ma‘lumot - mana shu. Shu yillarda shoir bilan yaqin aloqada bo‘lgan, uning vafotidan so‘ng adabiy merosini o‘rganish va targ‘ib etish bilan mashg‘ul bo‘lgan Muhsin Zokirovning ma‘lumot berishicha, Shayxzoda Beruniy hayotini o‘rganishga katta ishtiyoq bilan kirishib, arab, fors, turk va rus tillaridagi mavjud manbalarni o‘rganibgina qolmay, xalq o‘rtasida

tarqalgan rivoyatlar bilan ham astoydil qiziqqan. Uning Beruniy davri va hayotiga oid manbalardan olgan nusxalari o‘ndan ziyod mikrofil’ni, ko‘chi

**Adabiyotlar:**

1. Bobirovich, Q. D. J. R. (2023). MAQSUD SHAYXZODA VA ABADIYATGA DAHLDORLIK. "GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS, 9(1).
2. Islomovna, M. F. (2024). O ‘ZBEK ADABIYOTINING ATOQLI NAMOYANDALARIDAN BIRI MAQSUD SHAYXZODNING “JALOLIDDIN MANGUBERDI” ASARI. Yangi O'zbekistonda Tabiiy va Ijtimoiy-gumanitar fanlar respublika ilmiy amaliy konferensiyasi, 2(1), 89-92.
3. Islamovna, M. F. (2024, January). MAQSUD SHAYKHZADEH-TWO FOLK DILBANDI. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS (Vol. 1, No. 1, pp. 189-92).
4. Mamurova, F. (2023). MAQSUD SHAYXZODANING ADABIY MEROSI. Бюллетень студентов нового Узбекистана, 1(11), 9-11.